Tadqiqotimiz asosida taklif qilinayotgan yo‘nalishlarga oid ko‘rsatma va tavsiyalar:

1. Fan predmetlaridan fizika, kimyo, biologiyalar bo‘yicha mavzularning amaliyotda qo‘llanishiga oid disdaktik mazmundagi materiallar yaratilib, o‘quv jarayoniga tatbiq etilishi.

2. Fizika, kimyo, biologiyalar fan predmetlari bilan texnologiya fani aloqalar asosida o‘rganilayotgan texnik obyekt va texnologik jaraoyonlarning ilmiy asoslarini o‘quvchilarga ochib tushuntirib berish.

3. Fizika, kimyo, biologiyalar fan predmetlarini o‘qinishda politexnizm tamoyiliga to‘liq amal qilish.

4. PISA tadqiqotlariga tayyorlanish jarayonida oldin tushgan topshiriqlar mohiyatini ochib berishda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish borasida ish olib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017, 488-bet.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizmini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-qarori.

(3). Атутов П.Р. и др. Связь трудового обучения с основами наук. М., “Просвещение”, 1983, 128 с.

(4). Карпенко, М.Бершадская, Ю.Вознесенская. Международное исследование PISA и проблемы развития высшего образования. “Вестник общественного мнения”, 2007, № 5 (91), 47 с.

(5). Учиться в соответствии с требованиями завтрашнего дня – первые результаты PISA-2003//Новости ОЭСР, “Образование, наука, новая экономика”, 2004, № 7 «http://www oecdcentre.hse.ru/calendar/7_12_04html»

(6). Максимова В.Н. Межпредметные связи в процессе обучения. М., “Просвещение”, 1988, 192 с.

(7). Раджабов Рашид Фархадович. Изучение студентами педвуза естественнонаучных основ современного производства как фактор их профессиональной подготовки (на примере физики). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.

(8). Раджабов Рашид Фархадович. Как улучшить естественнонаучную подготовку студентов. Журнал «Школа и производство», 1991, № 9, с. 77–78 (в соавт).

(9). Раджабов Рашид Фархадович. Учебные задания по физике и астрономии с элементами техники (8 класс). М., Институт общего образования МО РФ, 1991,76 с. (в соавт).

(10). Раджабов Рашид Фархадович. Физика, техника, технология, производство. Методическое пособие для учителей физики и трудового обучения. М., Институт общего образования МО РФ,1992, 48 с. (в соавт).

(11). Radjabov Rashid Farxadovich. Ta’limiy kompetensiyalar va fanlararo bog‘lanishlar. “Zamonaviy fan va ta’lim”, ilmiy-metodik to‘plam, 3-son, Toshkent, 2019, 176–179-betlar.

(12). Radjabov Rashid Farxadovich. Ta’limiy kompetensiyalar va ularni shakllantirishda fanlararo bog‘lanishlardan foydalanish. Научно-образовательный электронный журнал “Образование и наука в 21 веке”, выпуск 23 том 6, 2022, с. 724–729.

(13).https://www.forbes.ru/education/517267-lucsie-skoly-mira-besprecedentnyj-proval-i-cena-vysokih-po-kzatelej

Mamonov Abduzoxid Mannotovich (Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani 12-umimta’lim maktabi direktori; abduzohidmamonov0283@gmail.com)

AXBOROT MADANIYATINI OSHIRISHDA PISA TADQIQOT USULLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari keng o‘rganiladi. Bugungi kunda axborot oqimining tobora ortib borayotgani ta’lim jarayonida axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni dolzarb masalalardan biriga aylantirmoqda. Shu sababli o‘quvchilarga axborotni tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada, ayniqsa, xalqaro baholash dasturlaridan biri bo‘lgan PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari misolida ta’lim tizimidagi o‘quvchilarning axborot savodxonligini oshirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *axborot madaniyati, PISA, internet, axborot, pedagogik yondashuvlar, zamonaviy ta’lim, matn, ma’lumot.*

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ PISA ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. *В данной статье всесторонне изучаются научно-методологические основы формирования и развития культуры работы с информацией у учащихся. В современных условиях, когда объем информационных потоков постоянно увеличивается, формирование и развитие навы-*

ков работы с информацией в образовательном процессе становится одной из актуальных задач. В связи с этим важно применять современные подходы к анализу, оценке и эффективному использованию информации учащимися. В статье, в частности, рассматриваются вопросы повышения информационной грамотности учащихся на примере международной оценки PISA (Programme for International Student Assessment).

Ключевые слова: *информационная культура, PISA, интернет, информация, педагогические подходы, современное образование, текст, данные.*

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING PISA METHODS TO ENHANCE INFORMATION CULTURE

Annotation. *This article comprehensively examines the scientific and methodological foundations of forming and developing students' information literacy. In today's world, where the volume of information flows is constantly increasing, developing skills for working with information in the educational process has become one of the most pressing issues. Therefore, it is essential to apply modern approaches to analyzing, evaluating, and effectively using information. The article specifically explores the enhancement of students' information literacy through the example of the international PISA (Programme for International Student Assessment) assessment.*

Keywords: *information literacy, PISA, Internet, information, pedagogical approaches, modern education, text, data.*

Kirish. Axborot madaniyati – bu insonning axborotni aniq, tizimli va samarali tarzda qabul qilishi, uni qayta ishlashi, tahlil qilishi va ijtimoiy hayotda qo'llay olish ko'nikmalari majmuasi hisoblanadi. Bugungi globallashgan axborot asrida ushbu salohiyatning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Axborot madaniyatiga ega bo'lgan shaxs yolg'on va ishonchsiz axborotni, haqiqatdan, ajrata oladi, mustaqil tahlil yuritib, ishonchli ma'lumotlardan samarali foydalanadi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy, ilmiy va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimi axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta ahamiyat qaratmoqda. Bu borada xalqaro baholash tizimlaridan biri bo'lgan PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqotlari muhim o'rin tutadi [1]. PISA – ta'lim sifatini baholovchi xalqaro loyiha bo'lib, har uch yilda bir marta o'tkazilib, dunyo miqyosida o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va eng muhimi, o'qish savodxonligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, uni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. PISA tadqiqotlari o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini baholash, balki ularning axborot bilan ishlash, uning ishonchliligini aniqlash, xulosalar chiqarish, mulohaza yuritish va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Axborot madaniyatini oshirishda PISA tadqiqotlaridan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari axborot madaniyatini oshirishda PISAning o'qish savodxonligi bo'yicha testlari ahamiyatlidir, chunki bu testlar o'quvchining axborotni tushunish, tahlil qilish va qo'llash ko'nikmalarini baholash uchun mo'ljallangan.

Axborot madaniyati uchun zarur bo'lgan quyidagi ko'nikmalar PISA tomonidan baholanadi:

1. Matnlarni tanqidiy anglash va manba ishonchliligini aniqlash.
2. Axborot manbalarini birlashtirish va umumiy mantiqni tushunish.
3. Ma'lumotni kontekstda qabul qilish va hayotiy masalalarga tatbiq etish.

Axborotni birlashtirish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish axborot madaniyatini oshirishda o'quvchilarni turli manbalar bilan ishlashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. PISA tadqiqotlarida turli manbalarni o'zaro qiyoslash va tahlil qilish nazariy va amaliy asoslarga tayanadi. Shuning uchun PISA testlari asosida o'quvchilarning bir manbadan foydalanib, boshqa manbalarni tushunishga o'rgatish samarali uslublardan hisoblanadi [4].

PISA tadqiqotida o'quvchilar turli xil manbalardan, xususan, ilmiy, adabiy yoki axborotli matnlardan ma'lumot olish qobiliyatini namoyon qilishlari kerak. Bu jarayonda o'quvchilar matnning asosiy mazmunini tushunishlari, uning eng muhim va asosiy qismlarini ajratib olishlari lozim.

Axborot madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar PISA tadqiqotlari natijalari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim bo'lib, bu dasturlar axborot bilan ishlashda o'quvchilarga tanqidiy yondashuvni o'rgatishga qaratilgan [5].


Bunda quyidagi metodologik yondashuvlar taklif etiladi:

1. Tanqidiy tahlil mashg'ulotlari. O'quvchilarga murakkab matnlar va turli ma'lumot manbalarini taqdim etish orqali ularni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish (1-rasm).



1-rasm. Tanqidiy tahlil mashg‘uloti.

2. Ma’lumot manbalari ustidan ishlash. Axborotning turli shakllarini tushunish uchun o‘quvchilarga jadval, grafik va infografikalarni o‘rganishni o‘rgatish (2-rasm).



2-rasm. Infografiya.

3. Turli formatdagi axborotlarni birlashtirish. O‘quvchilarga matnlarni grafik yoki tasvirlar bilan bog‘lab, ularni bir butun bir mazmunli hujjat sifatida qabul qilishga o‘rgatish [6] (3-rasm).



3-rasm. Axborotlarni birlashtirish.

Bundan tashqari, axborot madaniyatini oshirishga qaratilgan interfaol mashg‘ulotlar axborot madaniyatining asosiy qismlaridan biri bo‘lgan tanqidiy fikrlashni oshirishda interfaol mashg‘ulotlar muhim o‘rin tutadi. PISA tadqiqotlari asosida quyidagi interfaol faoliyatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

▪**Guruhli muhokamalar.** O‘quvchilarga ma’lumot manbasi, uning ishonchliligi va tanqidiy tahlil mavzusida bahslashish imkoniyatini berish.

▪**Turli manbalarni o‘rganish.** O‘quvchilarga bir mavzuda turli manbalardagi ma’lumotni o‘qitish va ularni birlashtirish mashg‘ulotlari tashkil qilish.

▪**Ta’limga oid videoroliklar.** O‘quvchilarga PISA tadqiqotlari asosidagi topshiriqlar orqali axborotni turli formatlarda tushunishni osonlashtiruvchi videoroliklardan foydalanish (4-rasm).



4-rasm. Ta’limga oid videoroliklar.

Bu texnologiyalar o‘quvchilarni turli matnlardan olingan axborotni tahlil qilib, uning asosida yangi kontekstlarda samarali foydalanish yo‘llarini topadilar. Bu jarayonlarda o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini, ularning muammolarga yechim topish qobiliyatini namoyon etadi. Axborotni faol qo‘llash, uni o‘zlashtirish va undan xulosa chiqarish jarayoni o‘quvchilarning axborot bilan ishlashdagi malakasini rivojlantiradi [7],[9].

Bu bosqichlarda o‘quvchilardan faqat axborotni tushunib, uni qabul qilish talab etilmaydi, balki ular o‘z bilimlarini kengaytirish va yangi ma’lumotlarni qo‘llash yo‘llarini topishga ham qodir bo‘lishlari kerak. Masalan, o‘quvchilar ma’lum bir mavzudagi ma’lumotlardan foydalanib, yangi xulosalar chiqarishi yoki turli kontekstlarda axborotni qo‘llash orqali muammolarni hal qilish yo‘llarini topishi mumkin. Axborotni qo‘llash va xulosa chiqarish bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, uning yordamida o‘quvchilar axborot bilan samarali ishlashni o‘rganadilar. Umuman, PISA tadqiqotida o‘qish savodxonligini baholash uchta muhim komponent orqali amalga oshiriladi: axborotni chiqarib olish va tushunish, axborotni baholash va uning mosligini aniqlash hamda axborotni qo‘llash va undan xulosa chiqarish. Bu komponentlar o‘quvchilarning axborot bilan ishlash qobiliyatini har tomonlama baholaydi va ularni zamonaviy axborot jamiyatida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Axborotni faol tushunish, tahlil qilish va qo‘llash o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki axborot oqimlarini to‘g‘ri boshqaruvchi, tanqidiy fikrlovchi faol shaxslarga aylantiradi [8], [11].

PISA tadqiqoti axborot tushunchasini murakkab va keng ko‘lamda o‘rganadi, chunki bu yerda axborot nafaqat bilimlar manbayi, balki yangi bilimlarni o‘zlashtirish va hayotda qo‘llash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, PISA tadqiqotida o‘qish savodxonligini baholash uchta muhim komponent orqali amalga oshiriladi: axborotni chiqarib olish va tushunish, axborotni baholash va uning mosligini aniqlash, hamda axborotni qo‘llash va undan xulosa chiqarish. Bu komponentlar o‘quvchilarning axborot bilan ishlash qobiliyatini har tomonlama baholaydi va ularni zamonaviy axborot jamiyatida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Axborotni faol tushunish, tahlil qilish va qo‘llash o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki axborot oqimlarini to‘g‘ri boshqaruvchi, tanqidiy fikrlovchi faol shaxslarga aylantiradi [9],[10]. Bu uch komponent axborot bilan ishlash ko‘nikmalarining ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi. PISA tadqiqoti axborot tushunchasini murakkab va keng ko‘lamda o‘rganadi, chunki bu yerda axborot nafaqat bilimlar manbai, balki yangi bilimlarni o‘zlashtirish va hayotda qo‘llash qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Axborot madaniyatini shakllantirish uchun PISA tadqiqotlarida qo‘llaniladigan axborotni tushunish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan metodikalardan keng foydalanish zarur. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, yangiliklarga ochiq bo‘lishi va turli manbalardan olingan ma’lumotlarni tahliliy yondashuv asosida baholashiga yordam beradi. Shu bilan birga, axborot madaniyatini rivojlantirish uchun zamonaviy ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va tanqidiy tahlilga asoslangan mashg‘ulotlarni kiritish muhim ahamiyatga ega. Metodologik yondashuvlar, xususan, tanqidiy tahlil, muammoli ta’lim, mediasavodxonlik darslari hamda interfaol mashg‘ulotlar, o‘quvchilarga zamonaviy axborot muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar nafaqat bilim olish jarayonini yaxshilaydi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish va real hayotda duch keladigan axborot muammolarini samarali hal qilishiga ko‘maklashadi. Shunday qilib, axborot madaniyatini rivojlantirish nafaqat ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Maxsudov R. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash (uslubiy qo‘llanma). Samarqand, “Zar-News”, 2018, 34-bet.

(2). Hamrayev A. Axborot madaniyati (monografiya). T., “Yangi zamon print”, 2019; Hamrayev A. Axborot xavfsizligi va uni qaror toptirish mexanizmlari. “Huquq”, № 6, 2021, 58-bet.

(3). Program for International Student Assessment Overview (PISA) 2022 A Publication of the National Center for Education Statistics at IES.https://nces.ed.gov/surveys/pisa/pdf/PISABrochure.pdf

(4). Hamrayev A. Axborot madaniyati (monografiya). T., “Yangi zamon print”, 2019; Hamrayev A. Axborot xavfsizligi va uni qaror toptirish mexanizmlari. “Huquq”, № 6, 2021, 54–60-betlar.

(5). Maxsudov R. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash (uslubiy qo‘llanma). Samarqand, “Zar-News”, 2018, 174-bet.

(6). Xo‘jamqulov U. Yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini axborot xurujlaridan himoya qilish va uning shartlar. “Ta’lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar” mavzusidagi V respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, I kitob, НамДУ, 2020, 124-bet.

(7). Пиаже Ж. Теория, эксперименты, дискуссии. М., “Дирек-Медиа”, 2008, с. 257.

(8). Сайдутдинов Р. Ўқувчиларнинг ўқув-билиш компетенциясини ривожлантириш омиллари. “Замонавий таълим”, 2015, 3-son, 24–29-betlar.

(9). Гумбольдт фон В. Избранные труды по языкознанию. М., 1984, с. 301–302

(10). Джон Дьюи. Школы будущего. “Народное образование”, 2000, № 8. http://jorigami.ru/PP_corner/Classics/Dewey/Dewey_Schools_of_Future.htm

(11). Zamonaviy raqamli axborot tizimlaridan talaba-yoshlarning foydalanishida ta’limtarbiyaning ahamiyati. I.Q.Ximmatov, M.A.Sulaymonov https://mppam2024.qarshidu.uz

Sobirova Laylo Xudayberganovna (UrDU Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti “Yakka kurash” kafedrasi o‘qituvchisi; sobirovala7@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Annotatsiya. *Dastlabki maktab yoshidagi bolalarning egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyatining asosiy mazmuni yoshga nisbatan mashqlar kompleksidan foydalangan holda egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish va rivojlanganlik darajasini aniqlab olishdir.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy holat, jismoniy sifatlar, egiluvchanlik, chaqqonlik, dars, harakat, jismoniy faoliyat.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КАЧЕСТВ ГИБКОСТИ И ЛОВКОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *Основным содержанием методики развития качеств гибкости и ловкости у детей младшего школьного возраста является формирование и определение уровня развития качеств гибкости и ловкости с использованием комплекса упражнений, соответствующих их возрасту.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, физическая подготовка, физическое развитие, физическое состояние, физические качества, гибкость, ловкость, урок, движение, физическая активность.*

METHODOLOGY FOR DEVELOPING FLEXIBILITY AND AGILITY QUALITIES OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation. *The main content of the methodology for developing flexibility and agility qualities in children of primary school age is to develop flexibility and agility qualities and determine the level of development using a complex of exercises appropriate to age.*

Keywords: *Physical education, physical training, physical development, physical condition, physical qualities, flexibility, agility, lesson, movement, physical activity.*

Kirish. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun «Davlat dasturi» mavjud bo‘lib, asosiy maqsad maktablarda jismoniy tarbiya darslarini rivojlantirishdir. Takidlash joizki, boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari egiluvchanlik, chaqqonlik, kuch va chidamlilikni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan davlat ta’lim standartlari asosida olib boriladi hamda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya darslarida baholanadigan jismoniy tayyorgarligi aniqlash meyorlari joriy etilgan. “Sog‘lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari biri bo‘lgan maktabgacha ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarida, korxona, tashkilot va boshqa turdagi barcha muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy moddiy-texnika bazasini shakllantirish”.